



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI**

"Xulq-atvor qanday bo'lsa, oqibat ham shunday bo'ladi"

Umumiy o'rta ta'lim maktab 6-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan dars materiallari

Harakat va qahramonlik o'rtasidagi farq



Harakat nima?

Harakat — bu shaxsning muayyan vaziyatda sodir etgan har qanday xatti-harakati bo'lib, u **ijobiy yoki salbiy** mazmunga ega bo'lishi mumkin. Harakat oddiy, kundalik yoki holatga mos ravishda amalga oshirilishi mumkin.

Qahramonlik nima?

Qahramonlik esa oddiy harakatdan farqli ravishda, **yuqori darajadagi jasorat, mas'uliyat va axloqiy pozitsiyani** talab qiladigan harakatdir. Qahramonlikda shaxs o'z manfaatidan voz kechib, adolat va jamoat manfaatlarini ustun qo'yadi.

Amaliy misol: Dilshodning jasorati

14-MAKTAB, 6-"B" SINIF

Dars paytida bir guruh o'quvchilar yangi o'quvchini masxara qila boshladi. Ko'pchilik bu holatni ko'rib turdi, lekin hech kim aralashmadi. Bir o'quvchi — **Dilshod** esa o'rta chiqib, bu harakatni to'xtatishni talab qildi va sinf rahbariga xabar berdi.

Ko'rib turish

Oddiy passiv harakat — aralashmaslik, jim qolish

Aralashish

Adolatni himoya qilish — qahramonlikka xos harakat

Xavfni qabul qilish

Dilshod masxara qilinishi mumkinligini bilsa ham to'g'ri pozitsiyani tanladi



Qahramonlik har doim katta ish qilish emas — kichik vaziyatlarda ham namoyon bo'ladi. Adolatni himoya qilish — bu qahramonlikning eng sodda ko'rinishi.

Muhokama savollari: Dilshod holati

- 1 Sinfdagi boshqa o'quvchilarning jim turishi qanday harakat sifatida baholanishi mumkin?
- 2 Nega ko'pchilik adolatsizlikni ko'rib turib aralashmaydi deb o'ylaysiz?
- 3 Uning harakati nimasi bilan oddiy harakatdan farq qiladi?
- 4 Siz shunday vaziyatda qanday qaror qabul qilgan bo'lardingiz?

Noo'rin xatti-harakat va uning oqibatlari

Noo'rin xatti-harakat — bu jamiyatda qabul qilingan **axloqiy, huquqiy yoki ijtimoiy normalarga zid** bo'lgan harakatlar majmuasidir. Bunday harakatlar tartib-intizomni buzadi, boshqalarning huquq va manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin.

Ahamiyatsizdek ko'rinadi, lekin aslida jamoaga salbiy ta'sir ko'rsatadi

Jamoada ishonchning yo'qolishi va munosabatlarning yomonlashishi

Qonunbuzarliklarga moyillikning ortishi va ijtimoiy muammolar



Amaliy misol: Bekzodning intizom buzilishi

9-MAKTAB, 6-"A" SINIF

Vaziyat

O'quvchi **Bekzod** dars paytida doimiy ravishda boshqalarni chalg'itib, gaplashib o'tiradi. Uning harakatlari sababli o'qituvchi darsni bir necha bor to'xtatishga majbur bo'ladi.

Bu harakat nafaqat shaxsiy intizomni buzadi, balki butun sinfning ta'lim olish huquqiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.


Tahlil va savollar:

- Bekzodning harakati qay tarzda butun sinfga ta'sir qilmoqda?
- Nega uning harakati faqat shaxsiy emas, balki jamoaviy muammoga aylanadi?
- Bu holatda boshqa o'quvchilarning ta'lim olish huquqi qanday cheklanmoqda?
- Agar o'qituvchi bu holatga chora ko'rmasa, qanday salbiy odatlar shakllanishi mumkin?
- Bekzod o'z xatti-harakatini qanday to'g'ri o'zgartirishi kerak edi?



Bekzod o'z harakatlari bilan boshqalarning huquqini cheklamoqda.
Bu "befarqlik" bilan bog'liq bo'lib, jamoaviy muammoga aylanadi.

Rost va yolg'on so'zlash



Rostgo'ylik axborotning ishonchliligi va adolatli qaror qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yolg'on esa boshqalarni chalg'itishga qaratilgan harakatdir.

Amaliy misol: Azamatning yolg'oni


21-MAKTAB

Sindagi oyna sindi. O'qituvchi voqeani so'raganda, uni sindirgan o'quvchi — **Azamat** buni boshqa o'quvchi qilganini aytdi.

- 1 Azamat aybdor, lekin javobgarlikdan qo'rqadi
- 2 Boshqa o'quvchini aybdor qilib ko'rsatadi
- 3 Aybsiz o'quvchining huquqi buziladi
- 4 Azamatning axloqiy holati yomonlashadi, ishonch yo'qoladi



Yolg'on orqali o'zini himoya qilish haqiqatan himoya hisoblanmaydi — u yangi muammolar yaratadi va adolatni buzadi.



Rost va yolg'onning oqibatlari

✓ Rostgo'ylikning oqibatlari

- Ishonchni shakllantiradi
- Munosabatlarni mustahkamlaydi
- Adolatli qarorlar qabul qilinishiga xizmat qiladi
- Huquqiy va ijtimoiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlaydi

✗ Yolg'onning oqibatlari

- Ishonchning yo'qolishiga olib keladi
- Noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga sabab bo'ladi
- Adolat buziladi
- Uzoq muddatda shaxsning obro'siga putur yetkazadi

Mehribonning holati: Ishonch muammosi

6-"V" SINF

Mehribon uy vazifasini bajarmagan, lekin "daftirimni uyda unutdim" deb o'qituvchiga aytadi. Bu holat bir necha marta takrorlanadi. Birinchi marta o'qituvchi ishondi, ammo keyinchalik bu yolg'onlar fosh bo'lgach, u Mehribonga nisbatan ishonchini yo'qotdi. Endi hatto rost gapirsa ham, unga ishonish qiyin bo'ladi.



Ishonch bir marta emas, bir necha harakatlar orqali shakllanadi — Shuningdek, uni yo'qotish juda oson, qayta tiklash esa juda qiyin.

Rostgo'ylikning qadr-qimmati

Rostgo'ylik — bu insonning axloqiy sifatlaridan biri bo'lib, u **halollik, ishonchlilik va mas'uliyatlilikni** ifoda etadi. Rostgo'y inson o'z harakatlari va so'zlari uchun javobgarlikni his qiladi va haqiqatdan chekinmaydi.



Rostgo'ylik jamiyatda ishonchli munosabatlarni shakllantiradi va adolatni ta'minlaydi



Rostgo'y inson o'z vijdoniga sodiq qoladi va ichki tinchlikni saqlaydi



Rostgo'ylik korrupsiyaviy xulq-atvorning oldini olishda muhim omil hisoblanadi



Amaliy misol: Saidaning halolligi

5-MAKTAB | IMTIHON VAZIYATI

Imtihon paytida o'quvchi **Saida** tasodifan javoblarni ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldi, lekin u bundan foydalanmadi va o'z bilimiga tayandi.

Oson yo'l

Javoblardan foydalanish — yuqori ball, lekin vijdotsizlik

To'g'ri yo'l

O'z bilimiga tayanish — vijdonan to'g'ri qaror

- ✓ Saidaning qarori qisqa muddatda qiyin bo'lishi mumkin, ammo u o'z vijdoniga sodiq qoldi. Bu uning shaxsiy qadriyatlarini mustahkamlaydi va "halol raqobat" tamoyiliga mos keladi.

- 1 Saidaning oldida qanday ikki xil yo'l bor edi?
- 2 Nega u oson yo'lni tanlamadi?
- 3 Halollik nima uchun ba'zan qiyin qaror hisoblanadi?
- 4 Rostgo'ylik insonning ichki holatiga qanday ta'sir qiladi?



Rostgo'ylik —

Noto'g'ri xatti-harakat —

Mas'uliyatli jamiyat —

Kichik yoshdanoq qadriyatlarni o'rganish — korrupsiyasiz kelajak

Bolalar kichik yoshidanoq bu qadriyatlarni hayotida qo'llashni o'rgansa, kelajakda **mas'uliyatli, adolatli va korrupsiyasiz jamiyatni** barpo etishga hissa qo'shadi.